

TILGA ANTROPOTSENTRIK YONDASHUV VA ISHORALAR

Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich
ADU professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Maqola tilni antropotsentrik yondashuv asosida tadqiq etish xususida bo'lib, o'zbek muloqotida aloqa-aralashuvning noverbal vositalaridan foydalanish, imo-ishoralar va ularning matniy ma'no xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Antropotsentrik, kommunikativ akt, adresant, adresat, simvolik sema.

Barchaga ma'lumki, til va inson ajralmasdir. B.A. Serebrennikov ta'biricha, "tilda barcha narsalar inson uchun yaratilgan, tilning o'zi ham u uchun mavjuddir" [1, 21]. Shuningdek, Yu.N. Karaulov tilni uning yaratuvchisi, qo'llovchisi va keyingi avlodga yetkazuvchisi bo'lmish insondan – konkret lisoniy shaxsdan ayro holda tushunish mumkin emas. Shunga ko'ra insonni uning hayotida ahamiyatli bo'lgan tili bilan birga tadqiq etish kerakligini ta'kidlab o'tadi. [2, 261]

"Tilshunoslik – insonshunoslik" tezisi antropotsentrik yondashuvning mahsuli sanalib, shaxs fenomeni bugungi ilm-fan oldidagi dolzarb, umumilmiy muammo darajasiga ko'tarilmoqdaki, buning natijasida tabiiy va gumanitar (insonshunoslik) fanlar orasidagi farq keskin ravishda qisqarib bormoqda. L.N.Churilina ta'biri bilan aytganda, ilmiy bilimning zamonaviy paradigmasi antropologik tarzda shakllanmoqda [3,4].

Shuning uchun ham antropotsentrizm bugungi kunda barcha fanlar uchun ilmiy tadqiqotlarning eng nufuzli tamoyillari sirasiga kirib, ular orasida yetakchilik qilib kelmoqda. Antropotsentrizm tamoyilining ustuvor yo'nalish va tadqiqot usuli ekanini YE.Kubryakova ham e'tirof etib, barcha nazariy fikrlarning asosiy burchagiga insonni qo'yish tendensiyasiga muvofiq inson nafaqat u yoki bu hodisalarning tahliliga jalb etiladi, balki u mazkur tahlil va yakuniy maqsadlar istiqbolini ham belgilab berishini [4] aytib o'tadi.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham antropotsentrizm tamoyili asosida bir qancha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zero, "Til doimo inson hayoti, ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir"[5, 36.], "...antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi" [6, 7].

D.Xudoyberganova antropotsentrik paradigmaning shakllanishida shaxs omili birlamchi bo'lishini, til tizimi shaxs omili bilan mutanosib ekani haqidagi g'oyalarni o'zbek tilshunosligiga ilmiy jihatdan tom ma'noda to'g'ri, mohiyatini teran anglatib olib kirgan tilshunos olimi sanaladi. U matnlarni antropotsentrik paradigma asosida o'rganish bo'yicha tadqiqot olib borib, o'zbek tilidagi matnlarning butunlay yangi tahlil yo'llarini tavsiya etadi. Uning har qanday matnning yaratilishi muayyan shaxs tafakkuri natijasi ekanligi haqidagi qarashi inson omilining ustuvor ekanidan darak bersa, o'sha matnning o'quvchisi (retsipiyenti) ham inson sifatida o'zining tafakkuri darajasida qabul qilishi va mushohada qilishini aytib o'tadi: "Matn yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilini o'rganish tadqiq obyektiga turli jihatlardan, xususan, semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazardan yondashishni taqozo etadi"[7, 7].

Olima kommunikativ vazifa bajaruvchi matnni tahlil qilib, uning mohiyatini to'la ochib berish uchun alohida olingan gaplarni tahlil qilish "torlik" qilib qolganini va badiiy matndan anglashiladigan mohiyatni aniqlash uchun mikro – va ba'zi hollarda, makromatnlarga murojaat qilish o'rinli bo'lishini uqtiradi.

Tilshunos M.Hakimova: "Antropotsentrik prinsipga asoslangan narsa-hodisalarning tadqiqi va tahlilining diqqat markazida inson bo'lib, u tadqiqotning istiqboli va so'nggi maqsadini belgilab beradi"[8, 83], – deb yozadi.

Antropotsentrizm ilmiy tadqiqotlarning markaziga aylanishiga sabab har qanday axborot muayyan shaxs tomonidan uzatilishi va boshqa shaxs tomonidan qabul qilinishi, kommunikativ aktning ro'yobga chiqishida kommunikantlarning o'zni masalasi, kognitiv tilshunoslik, diskurs masalalarining tadqiqotda ustuvor bo'lishi, nutq tilshunosligining tadqiqot obyektiga aylanishi, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvoo'lkashunoslik, paralingvistika kabi yo'nalishlarning markazida shaxs fenomenining bo'lishi, umuman olganda, til kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv vositasi ekanidan iboratdir.

Bu xususda G.V.Kolshanskiyning quyidagi fikri e'tiborga loyiq: "Inson subyekt sifatida eng avvalo atrof-muhit – tabiat bilan, so'ngra ijtimoiy olam bilan, keyinchalik alohida individ bilan va nihoyat o'zi bilan munosabatga kirishadi"[9, 41].

Ma'umki, til insongagina ato etilgan ne'mat bo'lib, uni tafakkurdan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Bu esa insonlar tomonidan muloqotning shakllanishida tafakkuriy munosabatlar ham ro'yobga chiqishini, o'zaro fikr almashinuv jarayonida inson sezgisi, hissiyoti, ruhiyati ahamiyatli ekanini bildiradi. "Shu bois tilni, uning sathlarini antropotsentrik paradigmada, ya'ni ma'lum bir til hodisalariga inson omilining ta'sirini ham inobatga olgan holda tadqiq qilish yana ham kengroq imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Chunonchi, til hodisalari o'z-o'zidan emas, balki bevosita insonning amaliy faoliyati, muloqoti jarayonida takomillashadi, yangilanib boradi, uning ba'zi birliklari iste'moldan chiqadi" [10, 12.].

Tilda inson faktorining yetakchi ekanligining boisi, umuman, borliqda inson faktorining yagona, birlamchi va ustuvor ekanligi asosida hosil bo'lgan aksiomatik qarashning hosilasidir. Inson hissiyotining namoyon bo'lishi psixologiya, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi yo'nalishlarning o'rganish objekti sanaladi. A.Vejbitskaya: "Hissiyotni tadqiq etish nihoyatda qiyin. Qiyinligi – u shunday unsurki, shu vaqtga qadar u tadqiqotga bo'yin egmaydi", – deb aytadi [11, 397].

Muloqotning atributi bo'lmish va uning tarkibiga kiruvchi imo-ishoralar, insonning hissiy-ruhiy holatining ifodalanishi, fikr ifodalash jarayonida ovozidagi sifatli o'zgarishlar, prosodik hodisalar – bularning barchasi antropotsentrik yondashuv tadqiqot usuli natijasi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Bu esa muloqot jarayonida ishlatiluvchi imo-ishoralarni, shuningdek, voqelikning yozma ifodasi bo'lmish matnlarning tadqiqida ham ishoralar, imolar va boshqa fonetik hamda kinetik vositalarni o'rganishni taqozo etadi.

A.Nurmonov ta'kidicha, "Inson o'zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida uning unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalanadi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi"[12, 66].

Har qanday lisoniy belgi kommunikatsiyada reallashadi, ya'ni kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuvda muayyan axborot (tushuncha) berish uchun qo'llanadi.

Har qanday axborot belgilar orqali adresatga uzatilar ekan, demakki, u imo-ishorami yoki uni ifoda etib keluvchi leksik birlikmi, baribir, belgi hisoblanadi. Bu o'rinda ma'lum ma'no kinesik va lisoniy belgi orqali uzatilishi mumkin. Shuningdek, kishi organi harakatini bildiruvchi birlik bilan ma'lum ishorani ifoda etuvchi kishi organi harakatini ifodalovchi birlik simvolik sema jihatidan farqlanadi. Kishi organi va uning harakatini ifodalovchi so'z qo'shilmasi nominativ xususiyat kasb etganda – ishora, boshqa holda so'zlarning erkin qo'shilmasidan iborat bo'ladi. Bu o'rinda erkin qo'shilma ishora fe'lining prototipi sanaladi.

Tilini tishlamoq erkin birikmasi ovqatlanish jarayonida yoki boshqa holatda tabiiy ravishda labni bexosdan tishlab olishni bildirsa, u ishora fe'li maqomiga ega bo'lganida, mos ravishdagi ishoraviy (simvolik) ma'no bildiradi.

Uydan xat oldingizmi?

– *Oldim, Yulduzdan ham. Birvarakayiga ikkita.*

Qunduz yana mamnun jilmaydi.

– *Aytmabmidim... – shunday dedi-yu, darrov **tilini tishladi**. Aftidan, aytish kerak bo'lmagan so'zni aytib yubordi shekilli.*

(J.Abdullaxonov)

Ishora fe'llaridagi simvolik sema so'zlar qo'shilmasidagi ma'noga nisbatan old planga surilganda, ishoraviy ma'no bildiradi va so'zlar qo'shilmasidan hosil bo'lgan ma'no orqa fonga o'tadi yoki diqqat markazidan yo'qoladi. Ishora ma'nosini ifoda etmaydigan so'zlar qo'shilmasi matnda boshqa so'zlar qurshovida ishlatilishi va erkin munosabatni ifodalashi mumkin.

*Ochko'zlik qilib stoldagi qand-qurslarni og'ziga solib chaynay boshlagan edi, qo'qqisdan **labini tishlab** oldi. Yig'lay desa, hamma qarab turibdi, og'zida qon paydo bo'ldi. (Ertakdan)*

Labini tishlamoq kommunikativ aktda noverbal vosita sifatida ishlatilganda, pastki yoki ustki lab tish bilan bosiladi, ba'zan bosh ham ikki yonga tebratiladi. Ushbu ishora harakati ramziy ma'noda *noto'g'ri, noo'rin holat; o'kinch, afsus; alam, ozor* kabi ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi.

– *Oradan bir aziyatli gap o'tganga o'xshaydi, shunaqami, jiyanim? Ozoda boshini quyi soldi, piyolani dasturxonga qo'ydi, ustki **labini tishlagan**cha jim qoldi. (R.R.)*

O'zbek adabiyoti namoyandalari asarlaridagi imo va ishoralarning verbal ifodasi bo'lmish ishora fe'llari va birikmalar o'ziga xos mikrosistemani tashkil etib, kontekstual rang-barangligi, ma'noviy xilma-xilligi va shakliy tuzilishidagi qonuniyat bu kabi lingvistik birliklarni keng miqyosda tadqiq etish darkor ekanidan darak beradi. Bu o'rinda kinemalarning verballashuvi masalasi diqqat markazida bo'lgan hodisa sifatida baholanadi. Zero, aloqa-aralashuv jarayonini to'laligicha lisonga ko'chirishda, kommunikatsiyani tashkil etishda ishtirok etuvchi barcha unsurlarni verballashtirish ahamiyatli sanaladi. Shu o'rinda, aytish kerakki, ishoralarning verballashuvi mavjud ishora fe'llari orqali yoki mualliflarning ijodiy verballashtirishlari orqali namoyon bo'ladi.

Fe'llarning leksik-semantik guruhlanishida imo va ishora fe'llari umumiy LSG tizimidagi mikrosistemani tashkil etadi. Bunda bir turkum doirasidagi so'zlar integral semantik belgilariga ko'ra tasniflanadi.

Ishora fe'llari tadqiqi tavsifiy xarakterda bo'lib, distributiv, transformatsion, komponent, kontekstologik kabi usullarda, shuningdek, ayrim o'rinlarda qiyosiy-tahlil usulida amalga oshiriladi.

Borliqdagi har qanday holat – u real yoki virtual (faqat ongda) bo‘lishidan qat’i nazar muayyan tushuncha ifodalaydi yoki sezgimizga ta’sir etadi. Bu holat til tizimida ma’lum til birligi (so‘z, so‘z birikmasi...) orqali ifodalanib muayyan nomga ega bo‘ladi. Ma’lumki, holat, harakat, predmet, belgi va boshqalar har bir tilda o‘z nomiga ega bo‘ladi.

Har bir xalq qaysi tilda gapirishidan qat’i nazar olamning betakror manzarasini bilishi o‘sha xalq tafakkuri darajasida bo‘lib, shunga ko‘ra ular da nominativ faoliyat namoyon bo‘ladi va odamlar o‘zini o‘rab turgan borliq haqida o‘zlarining kuzatuvlari natijasida jamoaviy xulosaga keladilar va o‘sha holda nomlashni yuzaga keltiradilar. Qadimiy leksik qatlam nominatsiyasining asoslarini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, muayyan konseptlarni o‘rganishda takrorlanuvchi semantik struktura nomlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu asnoda semantik struktura elementlari u yoki bu etnik guruhning borliqni atamalashi uchun bazaviy asos bo‘ladi.

Borliqdagi narsa-hodisotlarni konseptuallashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan kognitiv xarakterdagi tadqiqotlarning barchasi asosida olam manzarasini tushunish konsepsiyasi yotadi.

Olamning lisoniy manzarasini tadqiq etish masalasi XX asr oxiri tilshunosligining ustuvor masalalaridan bo‘lgani bejiz emas. Zero, barcha tillar uchun tilning kelib chiqishidan tortib, uning ichki va tashqi tomonini o‘rganishgacha bo‘lgan muammolar ushbu konsepsiya doirasida o‘z yechimini topishi tilshunoslar uchun ayon bo‘lib qoldi. Shunga ko‘ra rus tilshunosligida ushbu masala yuqori dolzarblik asosida YE.S.Kubryakova, R.I.Povilenis, B.A.Serebrennikov, A.A.Ufimseva va boshqa tilshunoslar tomonidan tadqiq etila boshlandi. Uzoq xorijda esa A.Vejbitskaya, YE.Bartminskiy kabilar o‘z tadqiqotlarini olib bordilar va natijalari bilan o‘rtoqlashdilar.

O‘zbek tilshunosligida N.Mahmudov, A.Nurmonov, H.Ne‘matov, Sh.Safarov, Sh.Shahobiddinova, D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganova, S.Mo‘minov, Sh.Iskandarova, M.Hakimov, B.Mengliyev kabi bir qator tilshunoslar tomonidan pragmalingsvistika, kognitiv tilshunoslik masalalari milliy til doirasida tadqiq obyektiga aylandi va borliq hamda til, lison va shaxs, adresant va adresat munosabatlari bo‘yicha ilmiy, nazariy va amaliy xulosalar chiqarildi va ularning nutqiy hamda matniy tadqiqi yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi zamon tilshunoslari tomonidan tilga kognitiv yondashuv turli nuqtai nazar va usullarni taqozo etadiki, bu holat tilning keng qamrovli va har tomonlama tadqiqi uchun xizmat qiladi. Zero, tilning sistem tuzilishi, leksema va uni nomlash, leksik-semantik tizimda til birliklarining kommunikativ xususiyatlarini o‘rganish jonli til va jonli muloqot masalalariga aniqlik kiritadi. Bu esa inson hayotida tilning o‘rni va vazifasi, inson hayotida tilning semiologik va semiotik faktorlarining o‘zaro aloqadorligi haqidagi tasavvurlarning tiniqlashishiga omil bo‘lib xizmat qiladi [13, 34].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и мышление. – М.: Наука, 1988. – С. 21.
2. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – С. 261.
3. Чурилина Л.Н. Антропоцентризм художественного текста как принцип организации его лексической структуры: дисс...док.филол.наук. – Санкт-Петербург, 2002. – С. 4.

4. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. – Москва, 2004.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 36.
6. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 5. – Б. 6-7.
7. Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик таҳлили. – Т.: Фан, 2013. – Б. 7.
8. Ҳақимова М. Луғат таркибининг абстракт сўзлар билан бойиш сабаблари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – № 1. – Б. 83.
9. Колшанский Г.В. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке // Сер. Лингвистическое наследие XX в. – Москва, 2005.
10. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Филол.фан. докт.дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 12.
11. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М., 1996. – С. 397.
12. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Т.: Академнашр, 2013. – Б. 66.
13. Довгель Т.В. Терминология паралингвистики и кинесики: в поиске терминосистемы // Текст в лингвистической теории и в методике преподавания филологических дисциплин.: Материалы III Межд. науч. конф., Мозырь, 12-13 мая 2005 г.: В 2 ч. – Мозырь: УО МГПУ, 2005. – Ч. 2. – С. 34.